



Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljurnal.uz>

Universal International Scientific Journal

e-ISSN: [3060-4540 \(online\)](https://doi.org/10.30604/540)

Year: 2024 Issue: 1 Volume: 6

Published: 27.09.2024 <https://universaljurnal.uz>

International indexes

GOOGLE SCHOLAR
CROSSREF (OAK BAZA)
ZENODO
OPEN AIRE
EUROPUB
RESEARCHGATE (OAK BAZA)
SJIF



Mahammadjanova Rayhona Malikjon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti
Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari
yo'nalishi iqtidorli talabasi

Qoriyev Mirzohid Rustamjonovich

Namangan davlat pedagogika instituti
Tabiiy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi,
Geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Uzbekistan

EKOLOGIK MUAMMOLAR VA TABIIY OFATLARNING SALBIY OQIBATLARI XUSUSIDA

Abstract: This article provides information on environmental problems arising under the influence of anthropogenic factors, as well as dangerous natural phenomena and their increasing level of danger and negative consequences.

Key words: ecological problems, anthropogenic factors, dangerous natural phenomena, environmental pollution.

Annotatsiya: Mazkur maqolada antropogen omillar ta'sirida yuzaga kelayotgan ekologik muammolar, shuningdek xafli tabiat hodisalari va ularning xavflilik darajasini ortib borishi hamda salbiy oqibatlari xususida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: ekologik muammolar, antropogen omillar, xavfli tabiat hodisalari, atrof-muhit ifloslanishi.

Аннотация: В данной статье представлена информация об экологических проблемах, возникающих под воздействием антропогенных факторов, а также об опасных природных явлениях и повышении уровня их опасности и негативных последствиях.

Ключевые слова: экологические проблемы, антропогенные факторы, опасные природные явления, загрязнение окружающей среды.

Language: Uzbek

Citation: Mahammadjanova , R., & Qoriyev , M. (2024). ON ENVIRONMENTAL PROBLEMS AND NEGATIVE CONSEQUENCES OF NATURAL DISASTERS. Universal International Scientific Journal, 1(6), 44–49. Retrieved from <https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/1107>

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13890097>

Dunyoda aholi sonining o'sishi, fan va texnika taraqqiyoti, inson ehtiyojlarining ortishi oqibatida yer yuzida bir qator ekologik muammolar yuzaga keldi. Shu bois, bugungi kunda ekologik sof tabiat, tabiiy ekotizim, tabiiy landshaft haqida gap yuritish mushkul. Yer yuzida o'rmonlar maydonlarining kengayishi o'rniga tobora qisqarib bormoqda, katta-katta tabiiy hududlar dehqonchilik qilish maqsadida o'zlashtirilmoqda, tabiat va atmosfera havosi har xil chiqindi hamda zararli gazlar hisobiga ifloslanmoqda. Buning natijasida, atrof-muhitga jiddiy talofat yetkazuvchi tabiiy ofatlar, jumladan, suv toshqinlari, o'rmon yong'inlari, chang bo'ronlari va boshqa tabiiy jarayonlar miqdori va ta'sir darajasi ham ortti. Misol uchun 2021 yilning o'zida dunyo miqyosida bir qancha o'rmon yong'inlari yuz berdi. Jumladan:

- Fransiya janubi, Ispaniya va Italiyaning Sardiniya orolida keng miqyosdagi o'rmon yong'inlari natijasida minglab gektar maydonlardagi o'rmon va qishloq xo'jalik yerlariga ziyon yetdi;

- 2021 yilning 13 iyul kuni Kaliforniya shimolida boshlangan va Diksi nomini olgan keng ko'lamli yong'inlar natijasida 200 ming gektardan ziyod maydonlar zararlandi;

- Shimoliy Makedoniya hukumati yirik o'rmon yong'inlari sababli bir oyga inqirozli vaziyat rejimini joriy etdi;

- Anomal issiq tufayli Turkiya g'arbi va janubida ham dahshatli yong'inlar yuz berishi natijasida sayyohlik tadbirlari, ekskursiyalar butunlay to'xtatildi. Qishloq xo'jalik maydonlari, fermalar yong'in ichida qolib, chorva mollari nobud bo'ldi;

- Gretsiyada ham bir necha kun davom etgan o'rmon yong'inlari havo harorati 40 darajadan yuqori bo'lishi oqibatida sodir bo'lgan. Ayrim

hududlarda havo harorati 47 darajagacha ko'tarilgan;

- Rossiya sharqidagi Yoqutiston Respublikasida o'rmon yong'inlari, rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 6 mln gektar hududni qamrab olgan — bu Belgiya hududidan ikki barobar katta;

- Jazoiridagi kuchli yong'inlar oqibatida halok bo'lganlar uchun mamlakatda 3 kunlik motam e'lon qilindi.

Jiddiy talofat yetkazuvchi tabiiy ofatlardan yana biri suv toshqinlari hisoblanadi. Dunyoning turli burchaklarida 2021 yilning o'zida bir qator suv toshqinlari kuzatilib, atrof muhitga katta zarar yetkazadi. Misol uchun:

- Afg'oniston sharqida joylashgan Nuriston viloyatida yuz bergan toshqinlarda kamida 150 kishi halok bo'ldi;

- Xitoyning Jyengjou shahrida kuchli yong'in yong'ishi natijasida suv toshqinlari sodir bo'ldi va bir qancha insonlarning hayotiga nuqta qo'ydi;

- Hindistonning Goa va Maharashtra shtatlarida ro'y bergan keng ko'lamli suv toshqinlaridan keyin minglab binolar vayron bo'ldi;

- Belgiyada 2021 yilning 14–16 iyul kunlari yuz bergan toshqinlar 10 mlrd yevrodan ko'proq zarar yetkazdi;

- G'arbiy Germaniyada minglab odamlar suv toshqinlari sabab uylarini tark etdi, 100 mingdan ortiq kishi elektr ta'minotisiz qoldi.

«Cloud to Street» kompaniyasi mutaxassislari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, XXI asr boshidan buyon suv toshqinidan jabr ko'rgan odamlar soni 24 foizga ortgan. Bu ko'rsatkich olimlarning prognozidan 10 barobar ko'pdir [1].

Olimlarning hisob-kitoblariga ko'ra, 2000 yildan 2018 yilgacha suv toshqinlari sayyoramizning 2,23 mln kvadrat kilometrlik hududiga zarar keltirgan, toshqinlardan 290 millionga yaqin kishi jabr ko'rgan [2].

So'nggi yillarda yuz berayotgan suv toshqinlarining qariyb 90 foizi Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlariga, ayniqsa Hind, Ganga-Braxmaputra va Mekong daryolari mintaqasiga to'g'ri kelmoqda. Bundan tashqari, sun'iy yo'ldosh ma'lumotlari Lotin Amerikasining janubiy qismi, Yaqin Sharq va Afrika mamlakatlarida ham suv toshqinlari ko'payganini ko'rsatadi.

Iqlim va demografik o'zgarishlar tufayli 2030 yilga borib suv toshqinlari yana 25 ta mamlakatda yuz bera boshlashi prognoz qilinmoqda.

Greenpeace Australia Pacific tadqiqotlar bo'limi boshlig'i Nikola Kazulening ta'kidlashicha, global isish oqibatida Tinch okeanidagi ayrim orol davlatlar yo'q bo'lib ketishi mumkin. «Dunyo okeani sathining ko'tarilishi Kiribati, Vanuatu va Sulaymon orollarini yashash uchun yaroqsiz holga keltiradi», deydi mutaxassis [7].

Ma'lumot berilishicha, 1900 yildan buyon dunyo okeani sathi 20 santimetr ga ko'tarilgan.

Tabiiy ofatlardan yana biri anomal issiq hodisasi bo'lib, ushbu hodisa 2021 yilda ko'plab hududlar qatori Toshkentda ham kuzatildi. Xususan, 2021 yilning 3–7 iyun kunlari Toshkentda uch asrning maksimum harorati kuzatilgani qayd etildi. O'zbekiston poytaxtida 5, 7 va 8 iyul kunlari yana rekord darajadagi issiq harorat takrorlandi.

Dunyoning yana bir qator hududlarida anomal issiq hodisasi kuzatiladi, jumladan:

- Fransiyaning ijtimoiy masalalar va sog'liqni saqlash vaziri Anes Byuzen yozda kuzatilgan anomal issiqlik 1,5 ming kishining o'limiga sabab bo'lganini ma'lum qildi;

- Kanadaning Britan Kolumbiyasi provinsiyasida anomal issiq havo sababli deyarli 500 kishi vafot etgan. Provinsiyada havo harorati rekord ko'rsatkich - 49,6oC ga yetgan. Bungacha Kanadada harorat 45oC dan oshmagan;

- Yaponiyada sakkiz mingdan ortiq odam kasalxonalariga yotqizilgan. Bunga jazirama tufayli issiqlik urishi sabab sifatida ko'rsatilgan.

Bu hodisalarning har biridan iqlim o'zgarishi insoniyatga qanchalik xavf tug'dira boshlaganini ko'rishimiz mumkin.

Mutaxassislar iqlim o'zgarishining asosiy sababi sifatida issiqxona effekti ekanligini ta'kidlashadi. Quyoshdan kelgan issiqlikning Yer sathida jamlanib, dimlanib qolishi issiqxona effekti deyiladi. Ya'ni Quyoshdan kelgan nurni Yer ham o'z navbatida atmosfera orqali koinotga qaytaradi. Ushbu nurlarning bir qismi koinotga chiqib ketish o'rniga turli omillar orqali chiqarilgan issiqxona gazlari yomonidan yutiladi. Uning koinotga qaytib chiqib ketmasligi oqibatida Yer yuzi me'yorida ortiq qiziydi va iqlimga ta'sir ko'rsatadigan issiqxona qatlami hosil bo'ladi. Natijada sutka mobaynida eng yuqori va eng past harorat o'rtasida kam farq bo'ladi. Ya'ni odamlar va tabiat tunda ham kunduzgi kabi issiq va dim havo ta'sirida qoladi. Bunday sutkalik issiqlik esa keskin isish hodisasini keltirib chiqaradi.

Issiqxona effektini hosil qiluvchi asosiy gaz – bu karbonat angidrid (CO₂) xisoblanadi. Har kuni atmosferaga 60 million tonnaga yaqin karbonat angidrid chiqarilmoqda. U atmosferaga ham tabiiy, ham sun'iy yo'l bilan qo'shiladi. Metan, azot oksidi kabi boshqa iflos gazlar havoga inson omili tufayli chiqarilib, bular bir butun issiqxona effekti darajasini belgilaydi.

Issiqxona effektini hosil qiluvchi gaz konsentratsiyalarining ortishi, sayyorada tabiiy issiqlik balansini buzadi va antropogen issiqxona effektini keltirib chiqaradi. Shuningdek, hozirgi kunda asosiy muammolar sifatida antropogen omillar ta'siri va qurg'oqchilik natijasida uglerod gazini yutuvchi o'rmon maydonlari keskin qisqarib ketishi, ozon qatlamining yemirilishi [5], yovvoyi tabiat maydonlarining qisqarib borayotganini ham keltirib o'tish mumkin. Ta'kidlash joizki, dunyo miqyosida har yili 11 million gektar tropik o'rmon kesilmoqda. Yo'qotishlar, o'rmonlarni tiklash ishlariga nisbatan 10 barobar ko'pdir.

Bularning barchasi pirovardida tabiat muvozanatiga putur yetkazmoqda.

Ekologik xavf bugungi kunda tobora keng tus olib, Yer yuzidagi barcha mamlakatlarni bu haqda chuqurroq o'ylashga majbur etmoqda. Jumladan, biologik xilma-xillikning qisqarib borishi bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari, ayniqsa, tashvishlidir. Xususan, Jahon yovvoyi tabiat (WWF), Global Footprint Network jamg'armalari va Londoning zoologik jamiyati mutaxassislari hamkorlikda o'tkazgan tadqiqot natijalariga ko'ra, 1970 yildan buyon dunyoda yovvoyi hayvon va qushlarning soni 3,43 ming turga, tirik sayyoraning indeksi esa 52 foizga (havo va quruqlikda yashaydigan jonivorlar turi 76 foizga, Yer usti va suvda kun kechiradiganlar soni 39 foizga) qisqargan [3].

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan ekologik muammolar O'zbekiston hududini chetlab o'tayotgani yo'q. Mamlakatimizda ham qator ekologik muammolar yuzaga keldi. Shular qatoriga quyidagilarni misol qilib ko'rsatishimiz mumkin:

1. O'zbekistondagi eng asosiy va dolzarb ekologik muammo – bu Orol dengizining qurib borishi va Orolbo'yi hududlarini tanazzulga yuz tutayotganligi hisoblanadi. Shu bois, davlatimiz rahbari Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida jahon hamjamiyati e'tiborini yana bir bor davrimizning o'tkir muammolaridan biri – Orolbo'yi hududidagi ekologik holatga qaratib, jumladan, bunday dedi: “Bugungi kunda har bir mamlakat bu jarayonning salbiy ta'sirini his etmoqda. Ming afsuski, bunday o'zgarishlar Markaziy Osiyo taraqqiyotiga ham katta xavf tug'dirmoqda”.

Binobarin, dengizning qurigan tubida, O'zbekiston va Qozog'iston hududida paydo bo'lgan 5,5 million gektar Orolqum cho'lidan har yili 75 million tonna chang va zaharli tuzlar atmosferaga ko'tarilib, olis Pomir, Tyan-Shan, hatto Grenlandiya, Arktika muzliklari va Norvegiya o'rmonlariga qadar yetib bormoqda [6, 9].

2. Tuproqning cho'llanishi, nurashi va sho'rlanish hodisasi ro'y bermoqda. Nurashga qarshi yetarlicha ishlar qilinmaganligi sababli, shamol va suv eroziyasi oqibatida, tuproq

unumdorligi keskin kamayib, uning unumdorlik darajasi 100 ballik baholash mezonini bo'yicha baholaganda 50-51% ga tushib qolganligi o'ta achinarli holatdir. Mamlakatimizda 2 million gektardan ortiq yer maydonlari yoki sug'oriladigan yerlarning deyarli yarmi buzilish xavfi ostida qolgan. Yerlarning o'ta sho'rlanib borayotganligi mamlakatimiz uchun eng yirik ekologik muammolardan biri hisoblanadi [4, 8, 10].

4. Tuproqning har xil sanoat va maishiy chiqindilar bilan ifloslanishi hozirgi kunda ham shiddatli davom etmoqda. Mineral o'g'itlarni, turli zaharli kimyoviy vositalarni, sanoat va qurilish materiallarini saqlash, tashish va ulardan foydalanish qoidalariga rioya qilmaslik oqibatida ham tuproq ifloslanmoqda. Mamlakatimizda qattiq maishiy chiqindilar tashlanadigan 230 dan ortiq chiqitxonalar mavjud bo'lib, ulardan o'rtacha 30 million kub metr chiqit to'planadi. Bularning barchasi geologik – gidrogeologik, geografik, ekologik shart-sharoitlari o'rganilmasdan tashkil etilgan tadbirlar bo'lib, qattiq maishiy chiqindilarni zararsizlantirib, oddiy ibtidoiy usulda, ko'mib tashlanmoqda. Yagona Toshkent maishiy chiqindilar tajriba zavodi 1991 yildan ishlay boshlagan bo'lib, shuni alohida ta'kidlash lozimki, bular unumdor yerlarni band qilish yoki tuproqni ifloslantirish bilan bir vaqtda suv havzalarini, atmosfera havosini, aholi yashash joylarini va eng achinarlisi insonni zaharlamoqda.

5. Suv tanqisligi muammosi. O'zbekistonning eng yirik ekologik muammolaridan biri, suv zaxiralarining (yer osti, yer usti suv) o'ta taqchilligi hamda ifloslanganligi katta tashvish solmoqda. Mamlakatimizda suv zaxiralari juda cheklangandir.

6. Atmosfera havosining ifloslanishi muammosi. Yirik sanoat inshootlari joylashgan Navoiy, Olmaliq, Chirchiq, Angren, Farg'ona, Bekobod shaharlari havosi tarkibida CO₂ ning miqdori normadagi 0,03% emas, balki 0,04% ga yetganligi tashvishli holatlardan hisoblanadi. Soha mutaxassislarning ma'lumotlariga qaraganda har yili respublikamiz atmosfera havosiga 4 million tonna turli xil zaharli modda va elementlar

qo`shilmoqda. Jumladan, ushbu chiqindilarning 50% i uglerod oksidi, 15% i uglerod chiqindilari, 14% i oltingugurt qo`sh oksidi, 9% i azot oksidi, 8% i turli xil qattiq moddalar bo`lib, qolgan 4% I esa o`ziga xos o`ta kuchli zaharli moddalarga to`g`ri keladi.

7. Atmosfera haroratining isib borishi, chang-to`zon bilan ifloslanishi. Atmosfera havosining isib borish yirik sanoat inshootlaridan chiqayotgan turli xil zararli gazlar, kislotali yomg`irlar orqali issiqxona effekti paydo bo`lishi oqibatida, havo haroratining isib ketish holati kuzatilmoqda. Mamlakatimiz arid mintaqada joylashganligi sababli namlikning kamligi tuproq yuza qatlamining isib ketishiga sabab bo`lmoqda. Qizilqum, Qoraqum, qolaversa so`ngi o`n yilliklarda paydo bo`lgan Orol qum sahrosi oqibatida harorat isishi bilan bir qatorda, juda mayda chang zarralarining atmosfera havosiga ko`tarilib, ifloslantirishi allergik, nafas bo`g`ma kabi kasalliklarining sezilarli darajada o`sganligi keskin kuzatilmoqda.

9. O`simliklar dunyosining ayovsiz kesilishi, cho`l, chala cho`l, tog` va tog` oldi hududlarining dehqonchilik maqsadida o`zlashtirilishi, hayvonlarning nobud bo`lishi va boshqa joylarga ketishi, tartibsiz ovlash, tutish, hakozaalardir. Shuningdek, Qoraqum, Qizilqum cho`llarida olib borilgan noo`rin va tartibsiz qidiruv ekspeditsiya ishlari cho`l bag`rini ilma teshik qilib yuborgan, oqibatda yer yuzi og`ir texnikalar zarbidan zichlashdi, o`simliklari payhon qilindi, hayvonlarining ko`pi nobud bo`ldi yoki boshqa hududlarga qochib ketdi.

Mamlakatimiz hududida umumiy hududimizga nisbatan 6,4% asosiy kislorod manbai hisoblangan qalin o`rmonlarimiz mavjud bo`lib, uni boshqa xo`jalik sohalari uchun ishlatish mutloq maqsadga muvofiq emas. Shu o`rinda hadisga murojaat qilsak, «ekmoq niyatida qo`lingizda ko`chat turgan paytda, bexosdan qiyomat-qoim bo`lishi aniq bo`lganda ham ulgursangiz uni ekib, keyin qoching» deb bekorga aytilmagan. Biosferadagi muvozanatni saqlab qolishda qo`riqxonalar, milliy bog`lar va davlat buyurtmalarining xizmati katta. Bunday alohida muhofaza qilinadigan xududlarda yo`qolib borayotgan noyob o`simlik va hayvonlar avaylab asraladi. Shuningdek, 1978 yilda O`zbekistonda «Qizil kitob»ning tashkil etilishi mahalliy ekologik muammolarimizni yaxshilashda yanada qo`l keldi. 1983 yili nashr qilingan «Qizil kitob»da turdagi sut emizuvchilar, 33 tur qushlar, 5 tur sudralib yuruvchilar, 5 tur baliqlar kiritilgan. «Qizil kitob»ning ikkinchi navbatiga esa davlat muhofazasiga olingan yo`qolib ketish xavfi bo`lgan 163 turdagi yovvoyi o`simliklar kiritilgan.

XULOSA. Keltirib o`tilgan ma`lumotlar insonlarni atrof-muhitga bo`lgan munosabatini tezroq o`zgartirishi lozim ekanligini ko`rsatmoqda. Aks holda yuz berayotgan salbiy jarayonlar kelgusida bundanda ayanchli oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ekologik muammolarni oldini olish va ularni bartaraf etish bo`yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish biz ekolog olimarning oldida turgan muhim vazifa hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. B.Tellman, J.A.Sullivan, C.Kuhn, A.J.Kettner, C.S.Doyle, G.R.Brakenridge, T.A.Erickson & D.A.Slayback. Satellite imaging reveals increased proportion of population exposed to floods. *Nature*. 596, pages 80–86 (2021).
2. Doston Ahrorov. Iqlim o`zgarishi va insoniyat. Global isish natijasida yuzaga kelishi mumkin bo`lgan tahdidlar. www.kun.uz. 12 avgust 2021 yil. <https://kun.uz/uz/91711393>
3. Farrux Yigitov. Ilmiy izlanishlar — global ekologik muammolar echimi. www.yuz.uz. 5 Noyabr 2020 yil. — <https://yuz.uz/uz/news/ilmiy--izlanishlar--global-ekologik-muammolar-echimi-?view=ov-qilishning-yangi-tartib-qoidalari-joriy-etildi>
4. Juraev Z., Ahn Y. J., Koriyev M. Urban Soil Dynamics: The Relationship Between Soil Health and Urbanization // *Journal of Asian Geography*. — 2024. — T. 3. — №. 2. — C. 62-69.

5. Qoriyev M., Baxtiyorov R. Ozon qatlami, uning yemirilishi, salbiy oqibatlari va muhofaza qilish imkoniyatlari //Journal of Research and Innovation. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 25-31.
6. Qoriyev M., Olimjonova M., Odilxonov A. Namangan viloyat atmosfera havosining ifloslanib borishi va uni oldini olish imkoniyatlari //Journal of Experimental Studies. – 2024. – Т. 2. – №. 2. – С. 19-26.
7. [www.theguardian.com - IPCC report shows “possible loss of entire countries within the century”](https://www.theguardian.com/world/2021/aug/10/ipcc-report-shows-possible-loss-of-entire-countries-within-the-century)
<https://www.theguardian.com/world/2021/aug/10/ipcc-report-shows-possible-loss-of-entire-countries-within-the-century>
8. Кориёв М. Р. Адир тупроқларининг зичлашиб бориши ва унинг олдини олиш чора-тадбирлари //Журнал Биологии и Экологии. – 2019. – №. 2.
9. Кориёв М. Р. и др. Namangan viloyati atmosfera havosining ifloslanishi //География: Природа и Общество. – 2021. – Т. 2. – №. 1.
10. Мамадалиев Ш. М. и др. Суғорма деҳқончилик натижасида адир тупроқларининг шўрланиб бориши ва уни бартараф этиш имкониятлари //Экономика и социум. – 2023. – №. 1-2 (104). – С. 313-318.